

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024 1-SON
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev Hududiy tashkil etishning ba'zi nazariyalarida aholi omilining o'рни va ahamiyati	6
K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov Landshaftlar vertikal tabaqalanishini matematik modellashtirish.....	15
Q.S.Yarashev, B.B.Yusupov Ekoturizm resurslardan oqilona va samarali foydalanishning ayrim masalalari (Dehqonobod tumani misolida)	22
T.J.Jumayev, Sh.B.Qurbonov, K.O.Daljanov Tog'li hududlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va hududiy tashkil etishning ba'zi masalalari	30
O.T.Mirzamahmudov Farg'ona vodiysi adir agrolandshaftlari va ularni joylashtirish yo'llari	36
O.M.Qo'ziboyeva, Z.Sherbayeva Janubiy Farg'ona daryolarining suv rejimiga iqlim o'zgarishining ta'siri	41
G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev Xavfli meteorologik hodisalarning takrorlanuvchanligini baholash (Farg'ona viloyati misolida) ..	45
Sh.Z.Jumaxanov, Sh.Sh.Zoirjonov Aholi xulq-atvorining etnolingvistik xususiyatlarini sotsiologik so'rovlar asosida o'rganish	54
R.Y.Xoliqov Farg'ona vodiysi paragenetik landshaftlari o'rtasidagi geokimyoviy migratsion jarayonlarning geoekologik muhitga ta'siri.....	61
K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov Landshaftlarning antropogen modifikatsiyalanishi va ularning tadqiq etishning ilmiy-nazariy masalalari.....	64
Y.I.Ahmadaliyev, O.I.Abdug'aniyev, J.G'.Eminov Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash	68
D.G'.Mo'minov, O.Q.Tobirov Farg'ona viloyati ekoturistik imkoniyatlarini baholashning bazi jihatlarini.....	81
K.M.Xakimov Antroponimik model: milliy familiya va uning zaruriyati haqida	87
Y.B.Raxmatov Buxoro viloyatining cho'l xududlarida suvdan samarali foydalanishning geografik muammolari	93
R.T.Pirnazarov Shohimardonsoy havzasida turizmni rivojlantirishning tabiiy geografik imkoniyatlari	96
P.R.Qurbonov Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya rivojlanishining sotsial jihatlarini.....	103
H.A.Oblaqulov, Y.R.Buranov, M.Sh.Qo'ziyeva Navoiy viloyat aholisining dinamikasi va hududiy joylashuvi.....	113
Z.X.Madaminov Iste'mol geografiyasi fani, uning rivojlanishi, iste'mol savatchasi tushunchasi va uni tadqiq qilish	118
E.G'.Mahkamov Farg'ona vodiysida turistik-rekreatsion faoliyatni tashkil etishni takomillashtirish yo'nalishlari	122
Z.A.Temirov Mehnat resurslari va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi o'rtasidagi hududiy muammolarni geografik o'rganish.....	128
M.M.Avezov, A.M.Elmurotova Kattaqo'rg'on tumanining geologik va orografik tuzilishiga umumiy tabiiy geografik tavsif	135
M.R.Usmanov O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar.....	140

FARG'ONA VODIYSIDA TURISTIK-REKREATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISHNI
TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ТУРИСТСКО-
РЕКРЕАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ

DIRECTIONS FOR IMPROVING THE ORGANIZATION OF TOURISTIC-RECREATIONAL
ACTIVITIES IN THE FERGANA VALLEY

Maxkamov Elyorbek G'ayratovich¹

¹Farg'ona davlat universiteti, geografiya kafedrası dotsenti, g.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Farg'ona vodiysining turistik-rekreatsion imkoniyatlari va ularning geografik xususiyatlari, turistik-rekreatsion salohiyatining hududiy jihatlari o'rganilgan va tegishli xulosalar olingan. Bundan tashqari, turistik-rekreatsion faoliyatni tashkil etishni takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Аннотация

В данной статье изучены туристско-рекреационные возможности Ферганской долины и их географические особенности, территориальные аспекты туристско-рекреационного потенциала и сделаны соответствующие выводы. Кроме того, были даны рекомендации по путям совершенствования организации туристско-рекреационной деятельности.

Abstract

In this article, the touristic-recreational opportunities of the Fergana Valley and their geographical features, territorial aspects of the touristic-recreational potential are studied and appropriate conclusions are drawn. In addition, recommendations were made on ways to improve the organization of touristic and recreational activities.

Kalit so'zlar: turizm, rekreatsiya, turistik-rekreatsion faoliyat, hududiy, turistik-rekreatsion salohiyat, Farg'ona vodiysi, turistik-rekreatsion faoliyat, turistik-rekreatsion yo'nalishlar.

Ключевые слова: туризм, рекреация, туристско-рекреационная деятельность, регион, туристско-рекреационный потенциал, Ферганская долина, туристско-рекреационная деятельность, туристско-рекреационные направления.

Key words. tourism, recreation, touristic-recreational activity, regional, touristic-recreational potential, Fergana Valley, touristic-recreational activity, touristic-recreational directions.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmonida 2022-2026-yillarga mo'ljallangan hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha dasturlar asosida har yili barcha tuman va shaharning muammo va imkoniyatlarini chuqur o'rgangan holda hududlar kesimida taraqqiyot dasturlari ishlab chiqilishi belgilangan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyuruvchilarning 86,3 % i qo'shni davlatlar (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston) hissasiga to'ri keladi. Horijiy va MDH davlatlarga 13,7 % to'ri kelib, ular orasida Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Afg'oniston, Xitoy, Janubiy Koreya yetakchilik qiladi. Sayohlarning 81,8 % i qarindoshlar va do'stlarni ko'rish (nostalgiya turizmi), 15,4 % i, dam olish va sayohat (tarixiy turizm, tabiiy turizm), 0,9 % i davolanish (rekreatsion turizm) maqsadida tashrif buyuradilar. 2019 yilda turistik xizmatlar eksporti 1313 mln. AQSH dollarini tashkil etgan [10].

Rekreatsion-turistik faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganda nostalgiya turizmida MDH bo'yicha Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, horijiy davlatlar bo'yicha Turkiya, Koreya, Isroil, Germaniya, kasbiy (xizmat yuzasidan, o'qish va ishlash) turizmida MDH bo'yicha Rossiya, Qozog'iston, Turkmaniston, horijiy davlatlar bo'yicha Xitoy, Afg'oniston, Turkiya, dam olish va sayohat (tarixiy, tabiiy) turizmida MDH bo'yicha Turkmaniston, Rossiya, Qozog'iston, horijiy davlatlar bo'yicha Afg'oniston, Xitoy, Turkiya, rekreatsion (davolanish) turizmida MDH bo'yicha Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, horijiy davlatlar bo'yicha Afg'oniston, Turkiya, shop (tijorat) turizmida MDH bo'yicha Turkmaniston, horijiy davlatlar bo'yicha Afg'oniston, Xitoy, tranzit maqsadida MDH bo'yicha Tojikiston, Rossiya, Qozog'iston, horijiy davlatlar bo'yicha Afg'oniston, Hindiston, Xitoy davlatlaridan keluvchilar ulushi yuqori hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha tashkil etilgan 149 ta turistik marshrutlarning 28,2 % i (42 ta) Farg'ona vodiysi bo'yilab tashkil etilgan. Bu turistik marshrutlarning asosiy qismi Farg'ona shahri (39 ta), Qo'qon shahri (18 ta), Marg'ilon shahri (13 ta), Namangan shahri (7 ta),

Andijon shahri (7 ta), Quva shahri (4 ta), Rishton shahri (3 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Farg'ona vodiysiga kelayotgan sayyohlarning birinchi yoki doimiy qo'nalg'asi Farg'ona va Qo'qon shaharlari hisoblanadi. Marshrut dasturiga kiritilgan boshqa shaharlarga sayohat bu shaharlardan ekskursiya ko'rinishida amalga oshiriladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonning xalqaro turizm brendida uning yuqori salohiyatli yo'nalishlari e'tiborga olinmagan yoki yetarli darajada yoritib berilmagan. Bu esa o'z navbatida Farg'ona vodiysida ham turistik-rekreatsion yo'nalishlarni belgilashda o'z ta'sirini ko'rsatgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Rekreatsiya va turizmni geografik jihatdan o'rganish va rivojlantirishning ilmiy uslubiy asoslari, baholash mezonlari horijlik va MDH olimlaridan H.Robinson (1976), N.Leiper (1979, 1992), D.Getz (1986), S.Williams (1998, 2009), C.M.Hall, S.J.Page (2002), Charles R.Goeldner, J.R.Brent Ritchie (2009), Robert W.Wyllie (2011), R.W.Butler (2011), V.S.Preobrajenskiy (1972, 1975, 1986), D.L.Armand (1975), Y.A.Vedenin (1982), N.S.Mironenko (1981, 1998, 2006), L.I.Muxina (1973), H.A.Danilova (1988), K.Jumashev (1990), A.G.Nizamiyev (1998), S.R.Yerdavletov (2000), L.Y.Majar (2008, 2009), V.I.Krujaln, N.S.Mironenko, N.V.Zigern-Korn, N.V.Shabalina (2014) va boshqa olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ayni vaqtda, respublikamizda ham rekreatsiya va turizmning ayrim muammolari bo'yicha A.S.Soliyev, H.Vahobov, A.N.Nigmatov, N.To'xliyev, F.Komilova, N.Q.Komilova, S.B.Abbasov, A.Abdulqosimov, K.M.Boymirzayev, B.SH.Safarov, Y.I.Ahmadaliyev, M.R.Usmonov, N.E.Ibadullayev, Q.S.Yarashev, O.I.Abdug'aniyev kabi tadqiqotchilar shug'ullanishgan.

Rekreatsion-turistik salohiyatni (RTS) baholash tadqiqotning boshlang'ich bosqichi bo'lib, hududning asosiy xususiyatlarini (kuchli va kuchsiz tomonlarini) namoyish etadi. Bu esa mintaqadagi sayyohlikni real baholash va samarali tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. TRSni o'rganish va uni baholash sohaning eng ko'p o'rganilgan jihatlaridan biri hisoblanib, uning uslubiy va metodologik asoslari V.S.Preobrajenskiy, A.A.Mins, Y.A.Vedenin, L.I.Muxina, V.B.Nefedova, N.N.Miroshnichenko, B.N.Lixanov, N.M.Stupina, B.B.Rodoman, M.A.Sarancha va boshqalar tomonidan atroflicha o'rganilgan.

Rekreatsiya va turizm hududida turizm va rekreatsiyani rejalashtirish va loyihalashtirish yo'li bilan sohani samarali rivojlanishini ta'minlash mumkin. Rekreatsiya va turizm obyekti va hududining ta'riflarini tahlil qilishda tadqiqotchilar turlicha yondashganlar. N.S.Mironenkoning fikriga ko'ra, rekreatsion faoliyat ixtisoslik sohasi sifatida faoliyat yuritadigan joyga rekreatsion hudud deyish mumkin [7]. V.I.Krujaln, Y.D.Dmitriyeviy fikricha, hudud sayyohlar uchun ma'lum darajada jozibador bo'lishi kerak, S.R.Yerdavletov esa turistik hududning o'ziga xos muhim turistik funksiyasi mavjudligini ta'kidlaydi.

S.Williams (2003) tomonidan turistik-rekreatsion faoliyatni rivojlantirishda uni hududiy tashkil etishning 3 ta shakli ta'riflangan bo'lib, ular quyidagilar: turistik anklav, kurort, turistik zona [2].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

RTSni baholash asosan 4 ta yo'nalishda olib boriladi: tibbiy-biologik (fiziologik), psixologik-estetik, texnologik va iqtisodiy [7].

Tibbiy-biologik baholash tabiiy sharoitning, birinchi navbatda iqlimning inson organizmi uchun qulaylik darajasini baholab berib, eng ko'p tadqiqotlar rekreatsiya va turizm uchun iqlimiy sharoitni baholashga qaratilgan. Bundan tadqiqotlar YE.YE.Fedorov, L.A.Chubukov, B.A.Ayzenshatat, N.A.Danilova, YE.M.Ratner, V.G.Boksha, I.A.Arnoldi, V.I.Rusanovalar tomonidan olib borilgan. Iqlimning inson organizmiga ta'siri bioiqlimiy ta'sir deyiladi [26]. Inson organizmining turli xil atrof-muhit sharoitlariga reaksiyasini aniqlash va normal fiziologik faoliyatini ta'minlash uchun atrof-muhitga bo'lgan inson ehtiyojlarini aniqlash maqsadida bioiqlimiy tadqiqotlar amalga oshiriladi.

Psixologik-estetik baholash landshaftning estetik ko'rsatkichlari asosida olib borilib, bunday tadqiqotlar bilan A.R.Budryunas, N.V.Buchatska, Y.A.Vedenin, L.I.Muxina, D.D.Dirin, N.N.Nazarov, D.A.Postnikov, I.V.Frolova, V.A.Nikolayev, M.Y.Frolova, K.I.Eringis, T.O.Yurgenslar shug'ullanishgan. Turistik-rekreatsion faoliyatni tashkil etishda landshaft va uning komponentlarining estetiklik ahamiyati asosiy manbaa hisoblanadi.

Texnologik baholash turistik-rekreatsion faoliyatni tashkil etishda mintaqa resurslarining injenerlik imkoniyatlari baholanadi. Texnologik baholash asoslari L.I.Muxina, L.F.Kunitsin kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Iqtisodiy baholashda hududning investitsiya jalb qilish va foyda olish imkoniyatlari tadqiq qilinib, M.A.Sarancha (2006) tadqiqotlarida o'rganilgan, unga ko'ri iqtisodiy baholashda bir nechta yondashuvlar mavjud [8].

Bundan tashqari, turistlar oqimi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni baholashda statistik modellar ham qo'llaniladi. Bunda statistik ma'lumotlar asosida barcha omillar ta'siri tahlil qilinadi va proqnoz qilinadi. Bundan tashqari, belgilarning umumiyligi bo'yicha moslashuvchan statistik modellar dinamik proqnoz modellariga tegishli bo'lishi mumkin. Turistlarning hududlarga kelishi haqidagi ma'lumotlarning birlamchi tahlili shuni ko'rsatadiki, ma'lumotlarning o'zgarishi xarakteri tendensiyalarning chiziqli qo'shimcha turlariga mos keladi. Bunday statistik baholashda odatda Xolt va Braun modelidan foydalaniladi [1].

Tabiiy komplekslarni rekreatsion-turistik baholashda eng samarali usullardan biri integratsiyalashgan kompleks baholash usuli hisoblanib, bu usul asosida Y.A.Vedenin, N.N.Mirishnichenkolarning tadqiqotlarida qo'llanilgan [4].

Bizningcha, rekreatsiya va turizm salohiyati, bu – rekreatsiya va turizm resurslari, ularning hududiy tuzilmalari hamda sayyoh va rekreatnlarning turistik-rekreatsion ehtiyojlarini qondirishga yordam beradigan shart-sharoitlar yig'indisidir.

Farg'ona vodiysida landshaft-ekologik asosga ega bo'lgan turistik-rekreatsion yo'nalishlarni tashkil etishda tabiiy turistik-rekreatsion salohiyati eng yuqori (Farg'ona tumani, So'x tumani, Pop tumani, Beshariq tumani), yuqori (Chust tumani, Quvasoy shahri, Quva tumani, Yozyavon tumani, O'zbekiston tumani, Xo'jaobod tumani) bo'lgan ma'muriy-hududiy birliklar imkoniyatidan to'liq foydalanish maqsadida ekoturizm, tabiiy-tanishtiruv turizmi, ekstremal va sport turizmi asosida kompleks turlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Ekoturistik marshrut. Farg'ona vodiysi tabiiy sharoiti, O'rta Osiyo hududidagi deyarli barcha tabiat ko'rinishlarining viloyatda uchrashi uning ekoturistik salohiyatining xilma-xilligini va doimiy tashkil etish imkoniyatini yaratadi. Bunday marshrutlarni Farg'ona tumanining o'zida 3 ta yo'nalishda tashkil qilish mumkin: Farg'ona-Vodil-Shohimardon-Yordon, Farg'ona-Avval-Yettibuloq, Farg'ona-Satkak-Chimyon [6].

1. Farg'ona-Vodil-Shohimardon-Yordon (3-5 kun). Vodil hududida soybo'yidagi dam olish zonalari, botanik tabiat yodgorliklari, Shohimardonning o'ziga xos unikal tabiiy sharoiti asosiy turistik-rekreatsion obyektlar hisoblanadi. Shohimardon-Yordon hududida erta tongda tog'lar ortidan quyoshning chiqishini tomosha qilish. Trekking(tog'da yayov sayr) uyushtirish. Qurbon ko'l, Yashil ko'lni tomosha qilish va ko'l suvida qayiqlarda suzish. Yordon qishlog'idan Ko'ksuv daryosi vodiysiga tushish. Chakka tomor gidrologik yodgorligi, Qadimgi morena geologik yodgorligi, Ko'ktosh qoyasi va Yordon manzarali daryo vodiysini tomosha qilish va o'rganish. Shohimardon daryosi bo'yida hordiq chiqarish.

2. Farg'ona-Avval-Yettibuloq (1-3 kun). Avval-Yettibuloq hududida soy va buloqlar atrofida joylashgan 800 ga yaqin uy ho'jaliklarida tashkil etilgan mehmon uylari dam olish mavsumida asosan mahalliy sayyohlarga xizmat ko'rsatadi. Farg'ona viloyati aholisining aksariyat qismi yoz olarida aynan shu hududda rekreatsion va turistik ehtiyojlarini qondiradilar.

3. Farg'ona-Satkak-Chimyon (1-3 kun). Chimyon va Satkak adirlari, buloqlari va soylari asosiy turistik-rekreatsion obyektlar hisoblanadi.

Vodiyning chala cho'l va cho'l hududlari ham o'ziga xos hayvonat va o'simlik dunyosiga ega bo'lib, tabiat yodgorligi sifatida muhofazaga olingan. Ularda sudralib yuruvchilar turkumidan turli xil zaharli ilonlar, cho'l toshbaqalari, qushlardan to'rg'ay, qarchig'oy, sut emizuvchilardan sariq sassiq ko'zan, kabilar uchraydi. Mazkur hududlar o'simlik va hayvonat dunyosiga qiziquvchi ekoturizm ishqibozlari uchun yangi turistik marshrutlarni tashkil etishni talab qiladi.

Bu hududda rekreatsion-turistik faoliyatni samarali tashkil etish maqsadida quyidagilar amalga oshirilishi lozim. Markaziy Farg'ona hududidagi muhofazaga olingan cho'l hududida ekoturistik marshrutlar uchun so'qmoqlar sistemasi ishlab chiqiladi. So'qmoqlarning kerakli joylarida dam olish va hudud haqida ma'lumot berish uchun shiyponchalar, ichimlik suvi va boshqa zarur narsalar qayerdaligini bildirib turuvchi belgilar tashkil qilinadi. Ekoturistik marshrutlarning asosiy maqsadi ekologik ta'lim va tarbiya berishga qaratilganligi uchun o'simlik va hayvonot dunyosidan namuna olish yoki faqatgina suratini olish bilan cheklanish kerakligi tushuntirib beriladi. O'quvchilar marshrutlar belgilangan turistik karta va ahloq normalari keltirilgan broshyuralar bilan ta'minlanadi va havfsizlik qoidalari bilan ta'nishtirilishi lozim. Sirdaryoning ko'xna o'zanidan darak berib turuvchi to'rang'il va saksavullar kabi o'simliklardan gerbariyalar tayyorlash uchun namunalar olinadi. Hayvon qoldiqlaridan(kulrang echkamar, gekkon (shirilloq kaltakesak), cho'l agamasi

(kunqarg'ar), matrap to'g'arakbosh (dumaloqbosh), ildam kaltakesakcha, ola kaltakesakcha, toshbaqa, ilonlar va boshq.) esa mulyajlar tayyorlanadi.

Rekreatsion (davolash-sog'lomlashtirish, tibbiy, nozo) turistik marshrut. Rekreatsion turistik marshrutlar asosan uchta davolovchi xususiyatga ega bo'lgan tabiiy-rekreatsion resurslar (iqlim, mineral suv, davolovchi loyqa (balchiq) va qum) asosida tashkil etiladi.

Iqlimiy (klimatoterapiya) asosga ega rekreatsion turistik marshrutlar Shohimardon va So'x, Pop hududlarida tashkil etiladi. Shohimardon tog' daryosining havzasi ionlarga juda boy hisoblanadi. Manfiy ionlar inson sog'lig'iga shifobaxsh ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa astma, asab sistemasi, yurak-tomirga ijobiy ta'sir etib, tananing funksional holatini yaxshilaydi.

Gidrologik (balneoterapiya) asosga ega rekreatsion-turistik marshrutlarni Oltiariq, Beshariq va Farg'ona tumanlarida tashkil etish imkoniyati yuqori hisoblanadi. Respublika Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 28-sentabrdagi nutqida ta'kidlanganidek, "...kelgusi besh yilda Rapqon, Chimyon, Qiziltepa qishloqlaridagi ma'danli suv zaxiralari atrofida 20 ta yangi sihatgoh barpo etiladi, mavjud tibbiy kurort va sanatoriylar infratuzilmasi yangilanadi".

Qum va balchiqli (peloidoterapiya) asosga ega rekreatsion-turistik marshrutlarni Buvayda va Quva tumanlarida tashkil etish imkoniyati yuqori hisoblanadi.

Ekstremal turistik marshrut. Shohimardon daryosida (Oqsuv va Ko'ksuv soylari bilan birgalikda) rafting, Qurbonko'l va Yashilko'lda motorli va eshkakli qayiqlarda suzish, Teshik tosh, Oltinbeshik g'ori va Konigut g'orida speleoturizm, Yordon va Shohimardon, Chodak vodiysi yaqinlaridagi tog' va tog' yonbag'irlarida trekking, alpinizm, trampindan sakrash, fristayl, snoubord, chang'ida uchish va boshqalarni tashkil etish mumkin.

Farg'ona vodiysining asosiy tog' turistik obyektlari O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalarining chegara hududlarida joylashgan bo'lib, transchegaraviy ahamiyatga ega. Bu esa turistik oqimning pasayishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Farg'ona vodiysining transchegaraviy turistik zonalarida turizmning tog' turizmi, speleoturizm, ekoturizm, rafting va boshqa tog' sporti turlari bo'yicha turizmning ekstrimal turlarini yo'lga qo'yish mumkin. Qo'shni respublikalar bilan hamkorlikda transchegaraviy rekreatsion va turistik zonalarini tashkil qilish nafaqat mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishga balki hududning tabiiy sharoitini saqlab qolishga ham imkon yaratadi.

Diniy va tarixiy turistik marshrut. Tarixiy-madaniy obyektlarni o'z navbatida moddiy va ma'naviy obyektlarga ajratish mumkin. Moddiy obyektlar jamiyat taraqqiyotining har bir tarixiy bosqichidagi ishlab chiqarish vositalari va boshqa moddiy qadriyatlarining yig'indisi, ma'naviy obyektlar esa jamiyatning ta'lim, fan, san'at, adabiyot yutuqlari yig'indisini ifodaladi. Har bir tarixiy davr albatta o'z izini qoldiradi, bu agxeologik qazishmalar paytida madaniy qatlamlarda o'z aksini topgan. Deyarli har bir hudud tanishtiruv turizmi uchun qiziqarli bo'lishi mumkin. Lekin, insoniyat uzoq vaqtlardan beri yashab keladigan hududlarda moddiy madaniyatning izlari ko'proq topiladi va hududning salohiyatini oshiradi [5].

Tarixiy-madaniy obyektlarni shakllanishida bir nechta ta'sir ko'rsatuvchi omillar mavjud:

- geografik – bir yoki bir nechta tabiiy geografik obyekt bilan bog'liq bo'ladi (daryo, ko'l, adir va boshq.);

- tarixiy – bir yoki bir nechta tarixiy davr yoki tarixiy voqea bilan bog'liq bo'ladi (Sharq uyg'onish davri, Qo'qon xonligi);

- memorial – bir yoki bir guruh tarixiy shaxslar xotirasi bilan bog'liq bo'ladi (Xudoyorxon, Jadidchi olimlar).

Farg'ona viloyatida geografik omillar ta'sirida shakllangan tarixiy-madaniy obyektlar, odatda, diniy, etnoekologik ahamiyatga ham ega. Rus sayyohi V.P.Nalivkinning ma'lumotlariga ko'ra (1886y), Farg'ona vodiysida XVI asrdan boshlab diniy-madaniy obyektlar joylashgan yerlar salmog'i ortib borgan. Muqaddas joylar ziyoratgoh vazifasini bajarish bilan birga tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishda muhim ahamiyat kasb etgan. Tabiatdagi noyob yaratmalarni muqaddaslashtirish orqali kishilar o'ziga xos tarzda ekologik muvozanatni saqlab turishga erishganlar [3].

Farg'ona vodiysidagi qadamjoylarning hududiy joylashishiga e'tibor beradigan bo'lsak, ularning asosiy qismi vodiyni tog' va adir mintaqalaridagi daryo havzalariga to'g'ri keladi. Bunday hududlarda o'rmonlarning kesib yuborilishi va suv havzalarining ifloslanishi o'z navbatida ichimlik suvi tanqisligiga, sel, surilma kabi jarayonlarni vujudga kelishini tezlashtiradi. Tub joy aholining etnoekologik madaniyati tufayli ushbu hududlarga muqaddas ziyoratgohlar tashkil etib tabiatning turli xil xavflari oldi olingan. Bunday hududlarga Farg'ona vodiysidagi Shohimardon va Yordon hududlarini misol qilib keltirish mumkin. Farg'ona vodiysi atrofidagi tog'lardan boshlanadigan

daryolarning yuqori qismidagi qishloqlar hududi “muqaddas ziyoratgohlar” vazifasini bajaradi. U qishloqlarning nomlanishida islom diniga taalluqli bo'lgan aziz avliyolar, payg'ambarlar nomlari ko'pchilikni tashkil etadi.

Hunarmandchilik va shop turistik marshrut. Farg'ona viloyatida turizmni rivojlantirishning muhim jihatlaridan yana biri bu yerda milliy hunarmandchilikning yirik tarixiy markazlarini mavjudligidir. Qadimdan Farg'ona vodiysida aholi manzilgohlari mavjud bo'lgan. Miloddan avvalgi I asrda Xitoyda bitilgan «Shiji» («Tarixiy xotiralar») asarida ta'kidlanishicha, Farg'ona vodiysi hududida 70 dan ortiq katta-kichik shahar va qishloqlar joylashgan [9]. Shunday ekan bu aholi manzilgohlarida yashagan kishilar o'zlari uchun zarur bo'lgan buyumlarni qo'lda yasaganlar va asta-sekin shu davrdan boshlab vodiya hunarmandchilik rivojlana boshlagan. Marg'ilon shahri, Rishton tumani, Qo'qon shahri. Bu hududlarda turistlar uchun maxsus savdo komplekslari ham tashkil etilgan.

Hozirgi kunda ham vodiya hunarmandchilikni bir qancha turlari saqlanib qolgan. Jumladan kulolchilik, pichoqlik, kashta tikish, yog'och o'ymakorlik, gilam to'qish kabi hunarmandchilikning qadimiy turlari bilan respublikada yagona mohir ustalar faoliyat olib borishadi.

Etnografik turistik marshrut. Ma'lumki, biron bir mamlakatga dam olish uchun kelayotgan sayyoh, shu joyning tabiatidagi qiziqarli manzaralari hamda mahalliy aholini yashash sharoiti, ularning urf-odatlarini, an'analari tomosha qilishga keladi. Farg'ona vodiysi ham ko'p ming yillik tarixga egaligi bois, boy madaniy yodgorliklar va ajdodlardan meros bo'lib qolgan urf-odat va an'analari, milliy o'yinlar rivoj topgan joy hisoblanadi.

Mintaqada kelgan sayyohlar uchun alohida etnografik marshrutlar dasturi ishlab chiqilmagan. Lekin marshrutlar davomida turistlarni kunduzgi yoki kechki dam olish vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida tub joy aholisi o'tkazayotgan urf-odatlar, tadbirlarga turistlar tashrif buyurishadi. Shu bilan birga oldindan tashkillashtirishdan tadbir vodiya etnografik turizmni rivojlantirish uchun mavsumiy hudud bo'lishi joiz. Asosan qish, bahor, qisman kuz fasllarida aholi yig'ilib turistlarga o'z urf-odatlarini namoyish etishi mumkin, qolgan vaqtlarda esa ular doimiy ishlari bilan shug'ullanadi. Jumladan, Farg'ona vodiysida mahalliy turistlarga ko'rsatish mumkin bo'lgan an'analardan biri, bu vodiya «Askiya» san'ati hisoblanadi. Askiya vodiyning Farg'ona, Marg'ilon, Qo'qon, Chust, Namangan, Andijon, Qorasuv, Xonobod shaharlarida keng tarqalgan. Bu an'ana ko'p yillardan saqlanib qolinib choyxonalarda, istirohat bog'larida erkak kishilar yig'ilib so'z o'yinini qilishadi. Etnografik turizmni rivojlanishda, to'ylarning ham o'рни beqiyos. Chunki, o'zbek to'ylari, ayniqsa, vodiya to'ylari qiziqarli urf-odatlariga boy, o'ta sho'x musiqalar bilan o'tkaziladigan tadbirdir. To'ylarning ham bir necha turlari bo'lib, etnografik marshrut davomida sayyohlar barchasi bilan tanishib chiqishi mumkin.

XULOSA

Tadqiqot obekti uchun tanlab olingan hududlar tabiatidan rekreatsiya va turizm maqsadida foydalanish hamda turistik-rekreatsiya faoliyatni tashkil etishni takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsifa va takliflar ishlab chiqildi:

Farg'ona viloyatida rekreatsiya-turistik salohiyatni landshaft-ekologik ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan (So'x t., Farg'ona t., Pop t.) hamda tabiiy-tarixiy rekreatsiya-turistik salohiyatni yuqori bo'lgan (Qo'qon sh., Marg'ilon sh., Rishton t., Chust t., Andijon sh.) hududlar uchun qo'shimcha rekreatsiya-turistik marshrutlar tashkil etildi va mavjudlaridan foydalanishni kengaytirish imkoniyatlari aniqlandi.

Rekreatsiya-turistik salohiyatni baholashning balans usuli mintaqalarning tabiiy (relyef, iqlim, ichki suvlar, landshaft, METH), tarixiy-madaniy (tarixiy va madaniy yodgorliklar, ziyoratgohlar, hunarmandchilik markazlari), ijtimoiy-iqtisodiy (iqtisodiy va turistik infratuzilma, mavjud rekreatsiya-turistik marshrutlar holati), ekologik va salbiy (havo va suvning ifloslanish indeksi, iqlimiy diskomfortlik, iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy noqulayliklar) ko'rsatkichlarini e'tiborga olgan holda takomillashtirildi. Bu esa har bir hudud bo'yicha asoslangan tematik rekreatsiya-turistik yo'nalishlar va ularni tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirishni kafolatlaydi.

Farg'ona vodiysining rekreatsiya-turistik sohadagi salohiyati va brendini, respublika va xalqaro darajadagi o'rnini ko'tarish uchun har bir ma'muriy birliklar imkoniyatidan foydalanish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Safarov B. (2010). The models of prognosis of regional tourism's development // Perspectives of Innovations, Economics and Business, PIEB, 6(3), 80-83.
2. Stephen Williams. Tourism geography. A new synthesis. 2009

3. Аҳмадалиев Ю.И. Ер ресурсларидан фойдаланиш геоэкологияси. -Т.: "Фан ва технологиялар" нашриёти, 2014. -340 б.
4. Веденин Ю.А., Мирошниченко Н.Н. Оценка природных условий для организации отдыха // Известия АН СССР. Серия географическая. 1969. № 4. С. 51–60.
5. Кусков А.С., Голубева В.Л., Одинцова Т.Н. Рекреационная география. Учебно-методический комплекс. М.: МПСИ, Флинта, 2005. 496 с.
6. Маҳкамов Э. Фарғона вилоятида экотуризм ва уни ривожлантириш истиқболлари // Ўзбекистон география жамияти ахбороти 44-жилд Тошкент, 2014 йил 73-75 бетлар.
7. Мироненко Н.С., Твердохлебов И.Т. Рекреационная география. -М., 1981. -207 с.
8. Саранча М.А. Рекреационный потенциал Удмуртской Республики: географический анализ и оценка. Автореф. дисс. кан. геогр. наук. -Пермь: 2006. -7-8 с
9. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар: Қадимий ва илк ўрта аср Хитой манбааларидан таржималар ва уларга шарҳлар. –Фарғона, 2013. -288 б., 34-бет
10. <http://cloud.uzbektourism.uz/uzbektourism/downloads/files/Book-curved.pdf>